2024–2025-yillar davomida O'zbekiston tijorat banklarining kredit portfelii hajmi 9 foizga oshgan. Shu bilan birga, muammoli kreditlar (NPL) darajasi 3–4 foiz atrofida o'zgarib turgan, bu esa qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini aniqroq baholash va banklarning underwriting tekshiruv usullarini sifat jihatidan yaxshilash zaruratini ko'rsatadi. Ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar batafsil 1-rasmda keltirilgan.

Chizmadan ko'rinib turibdiki, 2022–2025-yillar davomida kreditlar dinamikasi statistikasi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining umumiy kredit portfelii o'rtacha 12–17 foiz ga o'smoqda, 2023-yilda muammoli kreditlar



(NPL) hajmi kamaygan bo'lsa, 2024-yildan boshlab u o'rtacha 20 foiz ga oshib bormoqda. Shu bilan birga, NPL ulushi umumiy kredit portfeli tarkibida o'rtacha 3–4 foiz ni tashkil etadi.

Risklarni kamaytirish maqsadida zamonaviy skoring tizimlari va katta ma'lumotlar tahlili (big data analytics) joriy etilmoqda. Ko'plab banklar allaqachon qarz oluvchilarni baholash uchun sun'iy intellekt (AI) asosidagi platformalardan foydalanishni boshlagan. O'zbekistonning barcha banklarida jismoniy shaxslarga kredit berishda skoring tizimlari joriy qilingan va muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Biroq ochiq manbalarga ko'ra, 2024-yil oxiriga kelib yuridik shaxslar uchun kredit berishda skoring tizimlaridan foydalanish amaliyoti to'liq joriy etilmagani bois, bu qaror qabul qilish jarayonida qo'shimcha risklarni yuzaga keltiradi.

Zamonaviy banklar zarur hollarda yo'qotishlarni kamaytirish uchun zaxiralarni yaratadilar, qarz oluvchilar bilan kredit shartlarini qayta ko'rib chiqadi, muammoli kreditlarni (NPL) kollektorlik agentliklariga yoki boshqa moliyaviy institutlarga o'tkazadi hamda AI va analitik vositalardan foydalangan holda NPLni oldindan prognozlash va oldini olish tizimlarini joriy etadi. Masalan, O'zbekiston banklari so'nggi 5 yildagi kredit kechikishlari bo'yicha ma'lumotlardan foydalanib, PD (Probability of Default) "defolt ehtimolligi" modelini ishlab chiqishi va uni iqtisodiy pasayish ssenariysi asosida sinovdan o'tkazishi mumkin.

Operatsion risk – bu bank sohasidan tashqarida sodir bo'ladigan noxush voqealar bank investitsiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli bo'lib, u moliyaviy faoliyatni samarali boshqara olmaslik bilan bog'liq. Iqtisodiy inqiroz, siyosiy beqarorlik yoki tabiiy ofatlar bank sohasidagi bozor riskini kuchaytirishi mumkin. Bunday risklarni kamaytirish portfelnı diversifikatsiya qilish orqali amalga oshiriladi, biroq o'zaro bog'liq tarmoqlarni qamrab olgan inqirozlar bunday choralarni ba'zan samarasiz qiladi.

Dunyo miqyosidagi omillar – inflyatsiya, valyuta beqarorligi va foiz stavkalaridagi o'zgarishlar – banklarning daromadlilikiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Operatsion risk, shuningdek, moliyaviy boshqaruvdagi kamchiliklar, jumladan, kiberxavfsizlik tahdidlari bilan bog'liq. Raqamlashtirish va yangi IT-platformalarning joriy etilishi xavfsizlik risklarini oshirmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, banklardagi hodisalarning taxminan 30 foiz tizimdagi nosozliklar va kiberhujumlar bilan bog'liq.

Risklarni kamaytirish uchun malakali kadrlar tayyorlash, doimiy o'qitish, avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish va fikr-mulohaza dasturlarini yaratish zarur. Zamonaviy operatsion risklarni boshqarish usullariga quyidagilar kiradi: aniq jarayonlar va audit tizimlarini ishlab chiqish, sun'iy intellekt va tahliliy vositalar orqali anomalialarni aniqlash, xodimlar malakasini oshirish hamda sug'urta mexanizmlari orqali mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash.

Operatsion riskning muhim tarkibiy qismi bu kiberxavfsizlik riski bo'lib, u kiberjinoyatchilarning bankning raqamli tizimlariga muvaffaqiyatli hujum uyushtirish ehtimolini o'lchaydi. Bank xizmatlarining raqamlashtirilishi, jarayonlarning avtomatlashtirilishi va yangi IT-platformalarga o'tish – xavfsizlik hamda ichki jarayonlar bilan bog'liq qo'shimcha operatsion risklarni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasidagi kiberjinoyatchilikning asosiy qismi bank kartaları bilan bog'liq huquqbuzarliklardan iborat bo'lib, ularning ulushi umumiy kiberjinoyatlarning qariyb 98 foizini tashkil etadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2021–2024-yillar davomida kiberjinoyatlar oqibatida fuqarolarga yetkazilgan moddiy zarar 1,9 trillion so'mdan oshgan. Jumladan, faqatgina 2024-yilning o'zida ushbu ko'rsatkich 603 milliard so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilik tarkibidagi ulushi yil sayin keskin oshib bormoqda. Xususan, 2023-yilda kiberjinoyatlar jami jinoyatlarning 6,2 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 44,4 foizga yetgan. Ya'ni, deyarli har ikkinchi jinoyat axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda sodir etilgan. 2024-yilda ushbu turdagi jinoyatlar bo'yicha 58,8 mingta jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, kiberjinoyatlar asosan quyidagi usullar orqali amalga oshirilmoqda:

- 60 foizi – zararli havolalar va dasturlarni tarqatish orqali bo'lib, bunda jinoyatchilar fuqarolarning bank kartalari ma'lumotlariga yoki mobil qurilmalarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar;
- 16 foizi – turli aldov usullari, jumladan, soxta qo'ng'iroqlar orqali SMS-tasdiqlash kodlarini qo'lga kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi;
- 4 foizi – boshqa shaxslar nomiga noqonuniy ravishda onlayn kreditlar rasmiylashtirish bilan bog'liq;
- 11 foizi – OLX.uz, Olcha va boshqa elektron savdo platformalarida sodir etiladigan fribgarlik holatlariga to'g'ri keladi;
- 9 foizi – fuqarolarni soxta elektron birjalar va onlayn treyding faoliyatiga jalb etish orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilayotgan jinoyatlar soni ham ortib bormoqda. Jumladan, mashhur shaxslar – san'atkorlar, bloggerlar va sportchilarning tashqi qiyofasidan foydalangan holda yaratilgan dipfeyk videolar orqali fuqarolar chalg'itilmoqda. Ushbu soxta videolar asosan onlayn kreditlarni rasmiylashtirish jarayonida qo'llanilib, natijada fuqarolar jinoyat qurboniga aylanmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kiberjinoyatlarning 31 foizi aynan shu kabi usullar orqali sodir etilgan.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliya muassasalaridagi hodisalarning qariyb 30 foizi texnologik nosozliklar va kiberhujumlar bilan bog'liq. Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, faqat 2024-yilda Toshkent



shahrida aholining bank kartalari orqali 381 mlrd so'm (taxminan 30 mln AQSh dollari) masofadan o'g'irlangan bo'lib, ularning atigi 4 foizi (14,2 mlrd so'm) egalarga qaytarilgan. 2019-yilda Toshkentda atigi 113 ta kiberjinoyat qayd etilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 17 468 taga yetgan, ya'ni so'nggi olti yil ichida 154 baravar o'sish kuzatilgan.

Shuningdek, 2024-yilda firibgarlik bo'yicha murojaatlar soni 2023-yilga nisbatan 34 foizga oshgan, ularning 35 foizi to'lov kartalari bilan bog'liq. Firibgarlikning ko'payish sabablaridan biri – bank kartalaridan foydalanuvchilar sonining keskin oshganidir: yil boshida ularning soni 40 milliondan kam bo'lgan bo'lsa, hozirda 55 milliondan ortiq kartalar muomalada.

Kreditlar bilan bog'liq firibgarlik sxemalarini kamaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki onlayn kreditlarni rasmiylashtirishda 48 soatlik "muzlatish davri" joriy etdi. Bu davr mobaynida mijoz kredit tashkiloti bilan bog'lanib, ariza firibgarlar tomonidan yuborilmaganini tasdiqlamaguncha, karta orqali olingan mablag'larni chet elga chiqarish imkonsiz bo'ladi.

Unga ko'ra, onlayn kredit ajratilgandan so'ng ushbu kredit mablag'laridan foydalanishda quyidagi operatsiyalar bo'yicha 48 soatlik cheklov joriy etiladi:

- P2P-tranzaksiyalar (kartadan kartaga o'tkazmalar);
- jismoniy shaxslar o'rtasidagi to'lovlar va elektron xabarlar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar;
- mobil aloqa operatorlari orqali telefon hisobini to'ldirish;
- chet elga pul o'tkazmalari hamda onlayn valyuta ayirboshlash operatsiyalari.

Shuningdek, kreditlar bo'yicha mustaqil ravishda cheklovlar o'rnatishga imkon beruvchi qonun qabul qilindi. Unga muvofiq, jismoniy shaxs kredit byurosiga ariza topshirish orqali o'ziga nisbatan kredit shartnomasi tuzilishini taqiqlashi, ya'ni o'z ishtirokisiz yoki rozilgisiz kredit shartnomasi rasmiylashtirilishining oldini olishi mumkin.

Bundan tashqari, Markaziy bank, to'lov tizimi operatorlari, tijorat banklari va to'lov tashkilotlari raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik holatlarini oldini olish maqsadida zarur choralarni ko'rmoqda. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun hozirda to'lov tizimi operatorlari, tijorat banklari va to'lov tashkilotlarida firibgarlikka qarshi tizimlarni joriy etish, shuningdek, Markaziy bank doirasida markazlashtirilgan firibgarlikka qarshi kurash tizimini yaratish ishlari olib borilmoqda.

Banklarning mobil ilovalari orqali firibgarlikni oldini olish maqsadida bir qator o'zgarishlar ham joriy qilindi, jumladan:

- bank mobil ilovasiga xorijiy kartani qo'shish imkoniyati bekor qilindi;
- yangi qo'shilgan kartadan boshqa kartaga pul o'tkazmasini bir soat davomida amalga oshirish taqiqlanadi;
- mobil ilovaning masofadan turib ishlatilishi mumkin emas (telefon qo'ng'irog'i paytida ilova avtomatik to'xtaydi);
- bank mobil ilovasining yangi versiyasini xorijda ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati yo'q;
- mijoz onlayn kredit olish jarayonida majburiy biometrik identifikatsiyadan o'tishi shart (hatto ilgari identifikatsiyadan o'tgan bo'lsa ham).

Bundan tashqari, Markaziy bank tomonidan vaqtinchalik tartib kuchga kirdi, unga binoan:

- har bir fuqaro mobil ilova orqali onlayn kredit rasmiylashtirishda barmoq izi yoki yuzni skanerlash yo'li bilan identifikatsiyadan o'tishi lozim;
- agar fuqaro kredit tashkilotining mobil ilovasi orqali yangi hisob yaratgan bo'lsa, avval yaratilgan hisobga boshqa qurilmadan kirgan bo'lsa yoki onlayn qarzni birinchi marta olgan bo'lsa, mazkur kredit mablag'laridan foydalanish muddati 48 soat bilan cheklanadi.

Operatsion xavfni kamaytirish uchun malakali xodimlarni yollash hamda ularni bank amaliyotlari va axloqiy madaniyat tamoyillariga muvofiq tarzda to'g'ri tayyorlash zarur. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida jarayonlarni avtomatlashtirish inson omili bilan bog'liq xatoliklarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Shuningdek, teskari aloqa dasturlari va ma'lumotlarni yig'ish tizimlarini joriy etish bank faoliyatini boshqarish siyosatiga zarur tuzatishlarni kiritish imkonini beradi. Masalan, banklar so'nggi yillardagi firibgarlik holatlarini tahlil qilib, o'rtacha yo'qotish miqdorini aniqlashi va real vaqt rejimida shubhali operatsiyalarni kuzatish uchun KRI (Key Risk Indicators) ko'rsatkichlarini joriy etishi mumkin.

Komplayens-xavflar deganda, PML/FT va FROMU talablariga binoan ro'yxatga kiritilgan shaxslar bilan operatsiyalarni amalga oshirishga qo'yilgan cheklovlar, shuningdek, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniya tomonidan joriy etilgan xalqaro sanksiyalar doirasidagi cheklovlar nazarda tutiladi. Zamonaviy bank tizimida komplayens-talablariga rioya etish xavflarini boshqarish – bu faqat regulyator ko'rsatmalariga amal qilish emas, balki bu amaliyotlarni bankning asosiy operatsion faoliyatiga integratsiya qilish jarayonidir. Chunki bu yo'nalishda xatoga yo'l qo'yish narxi yuqori – me'yoriy va korrespondent talablarning buzilishi jiddiy moliyaviy jarimalar hamda bank obro'siga putur yetkazishi mumkin. Shu sababli, banklar regulyatorlar bilan muammolarga yo'l qo'ymaslik va shu bilan birga samarali faoliyatni saqlab qolish maqsadida ko'proq resurs



va e'tibor yo'naltirmoqda. Natijada, komplayens boshqaruvi endilikda faqat "back-office" funksiyasi emas, balki bankning strategik rejalashtirish va qaror qabul qilish jarayonining asosiy tarkibiy qismiga aylangan.

O'zbekistonning barcha tijorat banklari 2022-yil avgust oyidan boshlab Markaziy bank talablariga muvofiq ravishda sanksiyaviy komplayens talablariga rioya etish bo'yicha vakolatli bo'limlarni tashkil etishdi. Bu xalqaro idoralar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ikkilamchi sanksiyalar xavfini oldini olishga qaratilgan. Zamonaviy banklar komplayens-xavflarni boshqarish uchun bir qator tizimli choralarni qo'llaydi: maxsus bo'limlar tashkil etish, ular orqali mahalliy va xalqaro talablarning bajarilishini nazorat qilish; xodimlar uchun muntazam o'quv-treninglar o'tkazish, jumladan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va bank etikasi bo'yicha; ichki va tashqi auditlar orqali jarayonlarni tekshirish; tranzaksiyalarni monitoring qilish va buzilishlarni aniqlash uchun dasturiy ta'minotdan foydalanish (AML tizimlari); hamda aniq ichki reglamentlar, siyosatlar va bank jarayonlariga asoslanish. Masalan, O'zbekistondagi banklar regulyator tomonidan AML talablariga rioya qilmaslik bo'yicha necha marotaba ogohlantirilganini tahlil qilib, ushbu xavfni kamaytirish maqsadida avtomatik tranzaksiya monitoringi tizimini joriy etishlari mumkin.

Bugungi kunda tijorat banklarining ichki nazorat hamda sanksiyaviy komplayens bo'limlari bir-biridan ajratilgan bo'lib, ular turli vazifalarni bajaradi. Ichki nazorat boshqarmalari asosan bank faoliyati doirasida qonunga xilof ravishda olingan daromadlarni legallashtirish va pul yuvish bilan bog'liq operatsiyalarni oldini olish, shuningdek, mahalliy va xorijiy idoralar tomonidan tuzilgan turli cheklov ro'yxatlariga kiritilgan mijozlarning operatsiyalarini to'xtatish bilan shug'ullanadi.

Sanksiyaviy komplayens boshqarmalari esa, asosan tashqi savdo operatsiyalarida ishtirok etayotgan tomonlarni AQSh, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya va BMT tomonidan e'lon qilingan bloklovchi sanksiyalar ro'yxatlarida mavjud yoki yo'qligini tekshiradi.

O'zbekiston bank sektori hozirda chuqur islohotlar bosqichidan o'tmoqda. Xavfga nisbatan munosabatni samarali boshqarish esa me'yoriy-huquqiy islohotlar, texnologik yangiliklar va inson kapitalini rivojlantirishning uyg'unlashuvini talab etadi.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda muayyan yutuqlarga erishilgan, biroq rivojlangan davlatlar darajasiga chiqish uchun eng ilg'or xalqaro tajribalarni jadallik bilan joriy etish zarur.

Bu nafaqat tizimli xavflarni kamaytiradi, balki O'zbekiston banklarining mintaqaviy raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Zamonaviy O'zbekiston bank tizimi murakkab va ko'p qirrali chaqiriqlarga duch kelmoqda, bu esa xavflarni tezkor va samarali boshqarishni talab qiladi. Axborot texnologiyalarini integratsiya qilish, ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, xodimlar malakasini oshirish va xavf boshqaruvi tizimini takomillashtirish tijorat banklarining barqarorligini oshirishda strategik yo'nalish va muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, O'zbekiston bank sektori an'anaviy risk boshqaruvi modellari bilan bir qatorda sun'iy intellekt imkoniyatlari va proaktiv tartibga solish mexanizmlarini birlashtirishi zarur.

Xalqaro standartlar – xususan, Bazel III tamoyillari va xorijiy moliya institutlarining ilg'or tajribalarini amaliyotga tatbiq etish kredit, bozor va operatsion xavflarni kamaytirish bilan birga, dunyo miqyosidagi iqtisodiy beqarorlik sharoitida bank sektorining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Oldingi paragraflarda ta'kidlangandek, tijorat banklarida komplayens-nazorat xizmati o'z vazifalarini Bazel qo'mitasi tavsiyalariga muvofiq amalga oshirishi lozim. Bu vazifalarga quyidagilar kiradi: bank faoliyatiga mos tarzda komplayens-xatrlarni aniqlash va baholash, ularning darajasini tizimli ravishda tahlil qilish; bank rahbariyatiga amaldagi qonunchilik, qoidalar va standartlarga muvofiqlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berish, shuningdek, xodimlar uchun qonunlar, qoidalar va standartlarga, jumladan pul yuvishga qarshi qonunlarga rioya etish borasida ko'rsatmalar ishlab chiqish; ichki tartib-taomillar va operatsiyalarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligini baholash; bank xodimlarini qonun, qoidalar va standartlarga rioya etish masalalarida o'qitish; tegishli tashqi organlar, jumladan nazorat organlari bilan muntazam aloqalarni yo'lga qo'yish.

Jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish xavfini keltirib chiqaruvchi moliyaviy tahdidlarning ortib borishi sharoitida, bank faoliyati va uning mijozlar bazasi xususiyatlariga mos keladigan, ushbu xatrlarni boshqarish va baholashning mos va samarali modellarini ishlab chiqish zarurdir.

Tijorat banklarida ushbu masalaning naqadar muhimligini chuqur anglab yetgan bo'lib, buning dalili sifatida bank faoliyati doirasida jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida ishlab chiqilgan ichki normativ hujjatlar, jumladan "Know your customer" siyosatining joriy etilganligini keltirish mumkin.

KYC tamoyilini amaliyotga joriy etishning asosiy jarayoni – bu kredit tashkiloti mijozlarini identifikatsiya qilishdir. Bunda mijoz haqidagi ma'lumotlarni o'rganish, tekshirish, mavjud axborotni iloji boricha tasdiqlash va asoslash, mijozning operatsiyalari hamda boshqa bitimlari bo'yicha manfaatdor shaxslarni aniqlash va ularni identifikatsiya qilish ishlari amalga oshiriladi.

Kredit tashkilotlariga mijozlarni identifikatsiya qilish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish tavsiya etiladi. Buning maqsadi – huquqiy xavf va tadbirkorlik obro'sini yo'qotish xavfini kamaytirish bo'yicha profilaktik choralar



ko'rish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ya'ni mijoz bilan huquqiy munosabatlar o'rnatilishidan avval tegishli xavfsizlik choralarini ko'rishdir.

Barqaror KYC jarayonlari banklar xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Chunki ular:

– banklarning tadbirkorlik obro'sini va bank tizimlarining yaxlitligini himoya qiladi, banklarning moliyaviy jinoyat vositasiga aylanishi yoki ularning qurboniga aylanish ehtimolini kamaytiradi, natijada obro'ga putur yetkazish xavfini pasaytiradi;

– samarali risklarni boshqarish tizimining ajralmas qismi bo'lib, aktivlar va majburiyatlarga, shu jumladan boshqaruv ostidagi aktivlarga xavf ta'sirini aniqlash, cheklash va nazorat qilish uchun asos yaratadi.

Bank mijozlari bilan yangi biznes munosabatlarini o'rnatishda yoki ilgari o'rnatilgan munosabatlarning ishonchligini tekshirish zarur bo'lgan hollarda, "Know your customer" siyosatiga muvofiq tarzda mijozni tegishli darajada tekshirish amalga oshirilishi lozim.


Mijozni tegishli darajada tekshirish jarayoni to'rtta asosiy tarkibiy qismdan iborat bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: operatsiyani amalga oshirayotgan jismoniy yoki yuridik shaxsni identifikatsiya qilish uchun zarur ma'lumotlarni qayd etish; operatsiya bo'yicha mablag' oluvchini va uning vakilini identifikatsiya qilish maqsadida ma'lumotlarni qayd etish, shuningdek ularning imzolarini tekshirish va mosligini tasdiqlash; mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarni doimiy ravishda o'rganish hamda mavjud biznes munosabatlarini muntazam tekshirib borish.

Pul mablag'lari va (yoki) boshqa mulklar bilan operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish hamda shubhali operatsiyalarni to'xtatib turish choralarini ko'riladi.

1-bosqich – "Oldini olish" quyidagi qadamlardan iborat: mijozni identifikatsiya qilish, "Know your customer" siyosatini amalga oshirish, kengaytirilgan tegishli tekshirish o'tkazish va xatarni baholash.

2-bosqich – "Aniqlash" quyidagilarni o'z ichiga oladi: mijoz tranzaksiyalarini monitoring qilish, mijoz xatti-harakatlarini tavsiflash va davriy ko'rib chiqish.

3-bosqich – "Hisobot berish" esa shubhali operatsiyalar haqida xabarnoma yuborish, rahbariyatni xabardor qilish, xatarlarni tahlil qilish hamda operatsiyalarni to'xtatib turishni o'z ichiga oladi (2-rasm).



2-rasm. "Know your customer" siyosatining maqsadlari

Bankning "Know your customer" siyosati, shuningdek jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi siyosatlari hamda ushbu yo'nalishlarda amal qilinadigan ichki nazorat qoidalarini ko'rib chiqish natijasida, tijorat banklarida jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha umumiy mexanizm ishlab chiqilishi zarur (2-rasmda ko'rsatilgan).

Daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi choralar bankka bir vaqtning o'zida bir necha muhim vazifalarni hal etishga yordam beradi. Xususan, mijozlarni identifikatsiya qilish va tekshirish jarayonida ma'lumotlarni tizimli ravishda to'plash orqali: kelajakdagi xatarlarni prognozlash uchun ma'lumotlar bazasini yaratish; majburiy nazoratga olinishi lozim bo'lgan va shubhali deb topilgan operatsiyalarni aniqlash; yuqorida qayd etilgan choralarini hujjatlashtirish orqali moliyaviy monitoring mexanizmining asosiy yo'nalishlarini



belgilash; daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi ichki nazorat natijasida olingan ma'lumot va hujjatlarni saqlash; komplayens-nazoratni hamda uning vositalar majmuasini doimiy ravishda takomillashtirish; komplayens-nazoratni amalga oshiruvchi bank xodimlarini muntazam ravishda o'qitish va malakasini oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ko'rib chiqilgan ta'riflar hamda bank monitoringining o'ziga xosligi va u bilan bog'liq xatarlarni inobatga olgan holda, komplayens nazoratining asosiy vazifasi – bu tijorat banklarida jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish holatlari va belgilarini aniqlashdan iborat. Zamonaviy banklar, har qachongidan ham ko'proq, kelajakni oldindan ko'ra bilishlari va o'rnatilgan tartib hamda me'yorlarga rioya etish zarurligini anglashlari lozim, bu esa o'z mablag'lari hamda obro'sini saqlab qolish uchun muhimdir.

Zamonaviy raqobat sharoitida bozor iqtisodiyotida xizmat ko'rsatuvchi bankning sifati va ishonchligi masalasi juda dolzarbdir. Komplayens nazorati bankdagi xatarlarni kamaytirishning samarali usuli bo'lish bilan birga, mijozlar va investorlarni jalb etishning ham samarali vositasidir. Komplayens – bu korporativ boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, rahbariyat tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborotni ta'minlaydi, natijada strategik hamda taktik maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, tijorat banklarida daromadlarni legallashtirish xavfini neytrallashtirish bo'yicha moliyaviy monitoring mexanizmi sifatida komplayens nazoratini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari – daromadlarni legallashtirishga qarshi chora-tadbirlar monitoringi mexanizmini yo'lga qo'yish, mijozni identifikatsiya qilish va tekshirish jarayonida taqdim etilgan ma'lumotlarni, jumladan uning moliyaviy barqarorligi va biznes faolligi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, mijoz operatsiyalarini monitoring qilishda majburiy nazoratga tegishli operatsiyalarni aniqlash va bu ma'lumotlarni saqlash, shuningdek bank xodimlarining malakasini doimiy ravishda oshirib borishdan iboratdir.

Sun'iy intellektning moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashdagi roli tobora ortib boradi, bu esa regulativ va texnologik taraqqiyot bilan bog'liq. Mutaxassislar prognozlariga ko'ra, 2025-yil moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashda sun'iy intellektni joriy etish bo'yicha burilish davri bo'ladi. Bu davrda yetakchi bank institutlari mashinaviy o'rganish (machine learning) va transformatorlarga asoslangan til modellari kabi yetuk AI texnologiyalaridan sezilarli natijalarga erishadi. Shu bilan birga, yaqin yillarda bank sektori xodimlarining 3 foizigacha (taxminan 200 ming ish o'rni) AI joriy etilishi natijasida qisqarishi mumkinligi taxmin qilinmoqda. Eng ko'p xavf ostida qoladigan lavozimlar – takroriy va rutinali vazifalar, xususan back- va front-office hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish funksiyalaridir.

Taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi quyidagi natijalarga olib kelishi kutilmoqda:

- 2025-yil oxiriga qadar muammoli kreditlar darajasi 5 foizgacha kamayadi;
- kapital yetariligi ko'rsatkichi 17 foizgacha oshadi;
- xavf boshqaruvi sifati 30 foizga yaxshilanadi;
- 2027-yilga kelib sun'iy intellekt banklarning moliyaviy foydasini 12–17 foizgacha oshirishi mumkin.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun xalqaro standartlarni joriy etish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va axborot tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha ishlarni uzluksiz davom ettirish zarur. Shu yo'l bilan moliya institutlarining xavf boshqaruvi tizimini yangi bosqichga olib chiqish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Финансовый мониторинг. Учебник: [16+] / В. И. Глотов, А. У. Альбеков, Е. Н. Алифанова и др. ; под ред. В. И. Глотова, А. У. Альбекова; Ростовский государственный экономический университет (РИНХ). – Ростов-на-Дону : Издательскополиграфический комплекс РГЭУ (РИНХ), 2019. – 174 с.
2. Финансовое право : учебник / отв. ред. И. В. Рукавишникова. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва : Норма : ИНФРА-М, 2021. – 648 с.
3. Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.
4. Burxanov A.U. Moliyaviy xavfsizlik. O'quv qo'llanma. –Toshkent.: Ma'naviyat, 2019 -224 b.
5. Tursunov B.O. Korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish. DSc il. dar. ol. uchun diss. avtoref. –T.: 2021. -52 b
6. Michiru Sawada. Liquidity risk and bank portfolio management in a financial system without deposit insurance: Empirical evidence from prewar Japan. International Review of Economics & Finance. Volume 19, Issue 3, June 2010, Pages 392-406. <https://doi.org/10.1016/j.iref.2009.10.010>
7. Normah Omar and et.al. Malaysian DNFBPs' Perceptions on Awareness, Perceived Impact and Views on the AML/ CFT Requirements. Procedia Economics and Finance. Volume 31, 2015, Pages 595-600. [https://doi.org/10.1016/S2212-5671\(15\)01146-6](https://doi.org/10.1016/S2212-5671(15)01146-6)
8. Sofya Klimova, Nazerke Zhampeiis, Asmik Grigoryan. Contemporary approaches to money laundering/terrorism financing risk assessment and methods of its automation in commercial banks. Procedia Computer Science. Volume 169, 2020, Pages 380-387



9. Aleksandra Kuzior and et.al. Global Digital Convergence: Impact of Cybersecurity, Business Transparency, Economic Transformation, and AML Efficiency. *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity* Volume 8, Issue 4, December 2022, 195
10. Tom Barbereau a, Balázs Bodó. Beyond financial regulation of crypto-asset wallet software: In search of secondary liability. *Computer Law & Security Review*. Volume 49, July 2023, 105829
11. Destan Kirimhan. Importance of anti-money laundering regulations among prosumers for a cybersecure decentralized finance. *Journal of Business Research*. Volume 157, March 2023, 113558
12. Zaiton Hamin and et.al. «FATF» and Lawyers' Obligations under the AML/ATF Regime in Malaysia. *Procedia Economics and Finance*. Volume 31, 2015, Pages 759-765
13. Georgios Pavlidis. The dark side of anti-money laundering: Mitigating the unintended consequences of "FATF" standards. *Journal of Economic Criminology*. Volume 2, December 2023, 100040
14. Abhishek Thommandru, Dr Benarji Chakka. Recalibrating the Banking Sector with Blockchain Technology for Effective Anti-Money Laundering Compliances by Banks. *Sustainable Futures*. Volume 5, December 2023, 100107
15. Chi-Cheng Yang, Hsuan Chuang, Da-Yu Kao. The Proposed PDCA Model to Counter Money Laundering. *Procedia Computer Science*. Volume 207, 2022, Pages 2454-2463
16. Bangladesh Bank. (2016, February). *Guidelines on internal control & compliance in banks*. Banking Regulation & Policy Department. <https://www.bb.org.bd/>
17. Momot, T., & Koliada, I. (2017). T. Momot, I. Koliada Compliance Control for Ensuring The Financial Security of Banking Institutions: State, Problems, Prospects. <https://doi.org/10.30837/2522-9818.2017.2.124>.
18. Mulyk, A. (2022). The issue of economic and legal prerequisites for the emergence and development of compliance in the banking sector. *Uzhhorod National University Herald. Series: Law*. <https://doi.org/10.24144/2307-3322.2022.73.22>.
19. Pitsyk, K. (2023). Organizational foundations of the legal category "compliance" in the banking system of Ukraine. Scientific and informational bulletin of Ivano-Frankivsk University of Law named after King Danylo Halytskyi. <https://doi.org/10.33098/2078-6670.2023.15.27.1.214-222>.
20. Workshop CBU Uzbekistan and Argos / "International Sanctions Compliance" /2023-yil
21. Международный валютный фонд. Аналитические обзоры по банковскому сектору Центральной Азии, 2023.
22. Ежегодные отчёты Центрального банка Республики Узбекистана. 2022–2025 гг. www.cbu.uz.
23. Рекомендации Базельского комитета «Знай своего клиента». Надлежащее отношение банков к клиентам (стандарты Базельского комитета банковского надзора) // URL: <http://docs.cntd.ru/document/901934950>
24. <https://www.swift.com/risk-and-compliance/know-your-customer-kyc>
25. <https://www.swift.com/risk-and-compliance/know-your-customer-kyc>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
